

**DAVLAT TASHQI QARZLARINI SAMARALI
BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI****Kabilov Jamshid Abdukayumovich¹**¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.04.2025**Revised: 26.04.2025**Accepted: 27.04.2025*

Ushbu maqolada davlat tashqi qarzlarini samarali boshqarish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KALIT SO'ZLAR:

*qarz, davlat qarqi,
davlat tashqi qarzi,
davlat ichki qarzi,
davlat krediti, xalqaro
moliya institutlari.
byudjet-soliq siyosati.*

KIRISH. Davlat qarzi davlatning ichki va tashqi moliya bozorlaridan qimmatli qog'oz chiqarish orqali oladigan moliyaviy resursidir. Davlat qarzi byudjet defitsiti yuzaga kelganda olinadi. Davlat ichki iqtisodiyotdan qarz olganda milliy valyutada kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar emissiya qilish orqali amalga oshirsa, tashqi qarz olishda erkin konvertatsiya qilinadigan va qattiq valyutada kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar emissiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday qimmatli qog'ozlarni iqtisodiy terminda yevroobligatsiya deb ham atashadi. Davlat qarzlarini turli davlatlarda iqtisodiy o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda o'tgan asrning 50-60 yillarda katta miqdorda davlat qarzi mavjud bo'lgan bo'lsada, ammo ushbu qarzlar iqtisodiyotni tiklanishiga va xatto uni rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilgan. Shuningdek, ayrim davlatlarda, xususan Indoneziya davlatida davlat qarzi o'z samarasini bermagan va iqtisodiy o'sishiga to'sqinlik qilgan. Bu kabi misollarni ko'plab davlatlarda

keltirishimiz mumkin. Davlat qarzlarining iqtisodiyotga ta'siri bir vaqtda ham ijobiy va ham salbiy bo'lishi mumkin. Davlat qarzlarining past darajada bo'lishi yoki davlat byudjetining profitsitda bo'lishi moliya bozorida davlat qimmatli qog'ozlarining amaliyoti kuzatilmaydi. Bu o'z navbatida moliya bozorining eng likvid instrumenti hosil bo'lmaslikka va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarni olishda faqatgina bank tizimiga qaram bo'lib qolishlariga olib keladi. Shuningdek, davlat xarajatlarining ortishi savdo balansida defitsitni yuzaga keltiradi. Biz kabi rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida kapital oqimiga chegara mavjud ekan, bu holat milliy valyuta kursiga bosimni kuchaytiradi. Aksincha davlat qarzlarining oshishi, bu albatta davlat byudjetining defitsitda bo'lganda amalga oshiriladi, ichki moliya bozorini likvid qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirishga va nafaqat tadbirkorlik subyektlariga balki bank tizimiga ham foyda keltiradigan yuqori likvid aktivlarni ko'paytirishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga Markaziy bank uchun ham ochiq bozor siyosatini olib borish obyektini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida 2013 yilda oxirgi davlat qimmatli qog'ozlari so'ndirildi. Undan avvalgi davrda ham muomaladagi davlat qimmatli qog'ozlarining umumiy hajmi 50 mlrd. so'mdan yuqori bo'lmasligi belgilangan edi va bu iqtisodiyot uchun arzimagan summa hisoblangan. Mamlakatimizda 2017 yilga qadar davlat qarzi masalasiga jiddiy qaralar, uni oshishiga esa yo'l qo'yilmas edi. Bu o'z navbatida moliya vazirligiga katta bosim o'tkazilishiga, natijada esa moliya vazirligi davlat byudjetini doimiy profitsitda ushlab turishga majbur bo'lgan. 2017 yildan so'ng davlatning moliya tizimida katta o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, ichki davlat qarzlarini orqali moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi o'z navbatida moliya bozorining rivojlanishiga turtki bo'ldi. 423 O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda davlat qarzlarini, shuningdek iqtisodiyotni samarali boshqarilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF 60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida keltirilgan uchinchi ustuvor yo'nalishdagi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" to'g'risidagi 21-maqсадda ham iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat qarzlarini samarali boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni — 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan

oshib ketmasligini ta'minlash hamda davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash [1] maqsad qilib belgilangan.

Davlat qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri va uni baholash metodologiyasi borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan talaygina ilmiy ishlar olib borilgan. ushbu ilmiy tadqiqotlarning ayrimlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

2008 yilda boshlangan iqtisodiy inqiroz Yevropa davlatlarini juda qiyin ahvolga solib qo'ygan. Ular iqtisodiyotini rivojlantirishda YAIM o'sishiga katta e'tibor qaratgan va buning natijasida savdo balansi yomonlashgan va davlatda valyuta zaxirasi yig'ilmagan. Iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun davlatlar qarz olishga majbur bo'lishdi. Shu masalaga bag'ishlangan ilmiy ishlardan biri Panagiotis Pegkas tegishli bo'lib, u Gretsiyada davlat qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siriga baho bergan. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra davlat qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri avvalambor davlat qarzlarining hajmiga bog'liqdir. Qanchalik davlat qarzleri oshib boraversa iqtisodiy o'sishga ta'siri yo'qolib boradi. Tahlillarga ko'ra 2000 yilgacha Gretsiya hukumati tomonidan olingan qarzlar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qilgan bo'lsa, 2000 yidan keyingi olingan davlat qarzleri iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatgan [2]. Ammo iqtisodchi tomonidan davlat qarzlarining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini ifodalovchi aniq chegara ko'rsatilmagan. Ammo ko'plab iqtisodchi va ilmiy maktablar tomonidan davlat qarzi YAIMga nisbatan 60 foizdan oshishi iqtisodiy tanazzulga keltirish aytib o'tilgan.

Rosdiana Sijabat Indoneziya iqtisodiyotiga davlat qarzlarining ta'sirini o'rgangan. Tahlilda 1998-2018 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida VECM modelini qurgan. Tahlil natijalariga ko'ra Indoneziya davlatining tashqi qarzleri iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qilgan bo'lsa, davlatning ichki qarzleri aksincha ijobiy ta'sir qilgan. Shuningdek, aholining tashqi qarzleri ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri ko'rilgan [3].

P. Zondi va Z. Robinson Janubiy Afrika davlati misolida 1994-2019 yillar statistik ma'lumotlari asosida avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli (autoregressive distributed lag model) yordamida davlat tashqi qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholagan. Tahlil natijalariga ko'ra davlat tashqi qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri qisqa muddatda ijobiy bo'lgan. Ammo uzoq muddatda davlat tashqi qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri salbiy bo'lgan [4].

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri birinchidan, uning hajmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan uning manbasiga bog'liqdir.

Davlat qarzidorligi o'z mohiyatiga asosan ikki guruhga ajratiladi: ichki va tashqi qarz. Davlat tashqi qarzi – bu muayyan bir davlatning boshqa xorijiy davlatlar hukumatlari, xalqaro moliya institutlari (Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki) hamda dunyodagi yirik tijorat banklaridan kreditlar olinishi natijasida yuzaga kelgan qarzidorliklardir. Tashqi qarzga xizmat ko'rsatish (qaytarish) uning asosiy summasi (prinsipiali) hamda unga hisoblangan foiz summalariga ajratiladi. Xalqaro amaliyot tajribasi shundan dalolat beradiki, hozir dunyoda xalqaro moliya institutlaridan, yirik tijorat banklaridan va boshqa mamlakat xukumatlaridan ma'lum miqdorda tashqi qarz olingan davlat uchramaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda yuzaga chiqqan jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etish maqsadida iqtisodiyotni taraqqiy etgan davlatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va hozirgi vaqtda Gretsiya, Portugaliya va Ispaniya kabi ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya - bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga katta mablag'larni yo'naltirish uchun ulkan tashqi qarzlarni olishga majbur bo'ldi. Ushbu holat esa juda ko'plab mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi bilan birga davlat tashqi qarzlarini keltirib chiqardi. Yevropa Ittifoqiga a'zo va iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar o'zlarining rivojlanish bosqichida davlat tashqi qarzi va davlat byudjeti taqchilligi o'ziga xos tajribaga egadirlar. Aynan, yevrohudud mamlakatlarida (yevrohudud mamlakatlariga hozirda 27 mamlakat kiradi) Maastricht shartnomasida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar – uchun “yevro zonasi”da ishtirok etishlari uchun 1993 yil 2 maydan boshlab quyidagi qat'iy mezonlar o'rnatilgan:

- davlat byudjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 %dan ortmasligi lozim. Agarda belgilangan ushbu normativ buzilsa, uni buzgan davlatga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llaniladi;

- davlat tashqi qarzi miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60,0 %dan ortmasligi lozim (yoki ushbu ko'rsatkichga barqaror yaqinlashib borishlik mumkin);

- inflyatsiya darajasi Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan eng mo'tadil narx - navo mavjud bo'lgan uchta mamlakatdagi ko'rsatkichdan 1,5 %dan ortmasligi lozim;

Dunyoning har bir olingan mamlakatida davlat va uning vakolatli organlari o'zlariga yuklatilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni bajarishi uchun ma'lum daromad manbalariga ega bo'lishi lozimligi barchamizga ma'lum. Ushbu manbalarga soliqlar, turli majburiy to'lovlar va boshqa soliqsiz daromadlar kiradi. Xuddi shu yerda davlat nima sababdan qarz oladi degan savolga javob berish lozim. Davlatning qarz olishi birinchidan

davlat byudjetida davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasida muvozanat bo'lmagan holatda, ya'ni taqchillik yuzaga chiqqanda amalga kelishi mumkin. Ikkinchidan, mamlakatda ko'p yillik yirik davlat loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Uchinchidan, mamlakatdagi favqulodda vaziyatlar (urushlar, tabiiy ofatlar va boshqalar) natijasida, mavjud zaxiralar yetishmay qolganda va alohida turdagi manbalarga murojaat qilishga to'g'ri kelganda paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjeti taqchilligi sobiq ittifoqdan meros bo'lib o'tdi. Chunki respublikamiz davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi o'sha davr talabiga mos o'rnatilgan tartibda sobiq ittifoq byudjetidan ajratiladigan dotatsiyalar va subvensiyalar hisobiga tashkil topar edi. 1990 yilda respublikamiz davlat byudjeti daromadlarining 40.0 foiziga yaqini aynan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etgan. Lekin, 1990-1991 yillarda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar va mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil topishi natijasida ushbu ajratmalarning kelishi to'xtay boshladi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, ajratmalar kelishi butunlay to'xtadi va buning natijasida mamlakatimizda moliyaviy inqiroz yuzaga keldi. Xuddi shu davrda mamlakatimizda bir vaqtda ikki g'oyatda murakkab masalani hal etish – bir tomondan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda chuqur islohotlar o'tkazish, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xalq farovonligining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Eng asosiysi o'sha davrdagi iqtisodiyotimizning eng zaif tomoni – tayyor mahsulotlarning ayniqsa, g'allaning yetishmasligi muammosi ko'ndalang turar edi. "Sodda qilib aytganda, paxta va boshqa boylıklarimiz olib ketilardi, don, shakar, yonilg'i va boshqa xalq iste'moli mollari, umuman, hayotimizda zarur bo'lgan mahsulotlar olib kelinardi. Mana, birgina misol. Sobiq SSSR Kanada va Amerikadan har yili 40-50 million tonna g'alla sotib olardi. Shuning hisobidan O'zbekistonga ham ulush berardi. Ittifoq parchalanib ketganligidan keyin bizlar yillik ehtiyojimizga yetarli 6 million tonna g'allani qayoqdan olib kelishini, qayoqdan valyuta topishni o'ylab rosa sarson - sargardon bo'ldik" [5]. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'sha o'ta murakkab davrda mamlakatimizdagi moliya - kredit siyosatini nazoratda saqlab turish uchun tashqi qarz suv va havodek zarur edi.

Iqtisodiy islohotlarning "o'zbek modeli"ning yana bir ahamiyatga ega tomoni shundan iboratki, unda juda puxta va oqilona o'ylangan tashqi davlat qarzi siyosatidir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, uzoqni ko'zlab puxta ishlab chiqilgan xorij mamlakatlar hukumatlaridan va xalqaro moliya institutlaridan qarz olish va ularni joriy iste'mol bilan uzviy bog'liqlikda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga

yo'naltirish siyosati olib borildi. "O'zbekiston rahbariyati oldida turgan eng katta vazifalardan biri neft va g'alla mustaqilligiga erishish edi. Bu vazifaga ko'p jihatdan mamlakatning siyosiy mustaqilligi ham bog'liq bo'lib qolgan edi. Birgina 1994 yilning o'zida chet mamlakatlardan 674 million AQSH dollariga teng neft mahsulotlari va 430 million dollarlik g'alla sotib olindi. Bu esa umumiy import hajmining mos ravishda 25 va 16 foizini tashkil etardi" [6]. Xuddi ushbu omilni hisobga olgan holda, mamlakatimizda neft va g'alla bilan ta'minlashiga qaratilgan siyosat jadal sur'atlar bilan amalga oshirila boshlandi. Buning natijasida mamlakatimiz 1996 yilda to'liq energetik mustaqillikka va keyinroq g'alla mustaqilligiga erishdi. Bu esa o'z navbatida shu maxsulotlarni chetdan keltirishga sarflanadigan valyuta mablag'larini tejab qolishga imkon berdi. Shu tejab qolingani valyuta mablag'larini ishlab chiqarish quvvatlarini qayta jihozlashga sarflanganligiga milliy iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlarni ancha ilgari surish imkonini berdi.

Xorijiy mamlakatlar hukumatlari va xalqaro moliya institutlaridan olingan kreditlari birinchi navbatda milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi aniq investitsiya loyihalariga yo'naltirildi. Bular qatoriga neft va gaz, avtomobilsozlik, to'qimachilik, elektr texnikasi, oziq-ovqat hamda sanoatning boshqa tarmoqlarini kiritish mumkin. Bugungi kunda Buxoro neftni qayta ishlash korxonasi, SHo'rtan gaz-kimyoy majmuasi, Asakadagi avtomobilsozlik zavodi va boshqalar haqli ravishda milliy iqtisodiyotimizning bayroqdorlari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimizda xorijdan jalb qilingan valyuta mablag'lari faqatgina joriy iste'mol uchun emas, balki, yangi qo'shimcha qiymatini yaratish hamda mamlakatning ishlab rivojlantirishga chiqarish sarflandi. salohiyatini shakllantirish va "Shuni aytish kerakki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida ximoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yganligini ko'rish, kuzatish qiyin emas. O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyillariga doimo amal qilib kelmoqda. Shuni ham qayd etishni istardimki, qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmagan paytlarda muayan takliflardan voz kechgan holatlarimiz ham bo'ldi" [7].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat qarzi ichki va tashqi o'zlashtirish tizimi sifatida o'zida tizimli evolyusion yondashuv metodikasidan foydalanish imkoniyatini taxmin etadi. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi bo'lib, quyidagi g'oya hisoblanadi: o'zlashtirish jarayoni – bu o'zining shaxsiy va muhim harakatini amalga oshiruvchi,

shakllanish mexanizmini tashkil etuvchi butun bir tizimdir.

Davlat qarzini boshqarishda asosiy usul davlatning qarz olishini optimallashtirish hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ushbu usul “tartibga solib turish” usulidan kengroq bo‘lib, unda davlat tomonidan ichki va tashqi qarz olishda oqilona uyg‘unlashtirish dasturi asosida amalga oshiriladi. Ushbu dastur tarkibida tartiblashtirilayotgan valyuta, suzuvchi valyuta kurslari stabilligi, investitsion portfellarni boshqarish nazariyasini, oldindan ko‘zda tutilgan tartib - qoidalar modelini va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Yuqoridagi yondashuvlarning har biri alohida holda davlat qarziga ta’sir etuvchi barcha omillarni hisobga olmaydi, biroq ularning jamlangan holi tashqi o‘zlashtirish siyosatining mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari to‘g‘risida to‘liq tasavvur uyg‘otishi mumkin.

Ko‘plab xalqaro reyting agentliklarining, jumladan Fitch Ratings agentligining qayd etishicha, pandemiyadan keyingi davrda qarzlar bo‘yicha maqsadli chegaralarga rioya qilish amaliyotining shakllanishi va byudjet konsolidatsiyasining barqaror strategiyasini amalga oshirish davlat moliyalarini asosiy qulay reyting omillari sifatida saqlab qolish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qarzlarini yuzaga kelishida davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosat juda muhim o‘rin egallaydi va bevosita tasir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham davlat qarzlarini boshqarishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, unga ta’sir etuvchi omillarga o‘rganish eng muhim taraqqiyot omili bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu holat esa mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi oshishiga, dunyo mamlakatlarining O‘zbekistonga nisbatan ishonchi ortib borishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 son farmoni.

2. Pegkas P. (2018). The effect of government debt and other determinants on economic growth: The Greek experience. *Economies*, 6(1), 10.

3. Sijabat, R. (2020). Disentangling the Association between Government Debt and Economic Growth: A Granger Causality Approach from Indonesia. *Jurnal Studi Pemerintahan*, 11(1), 1-23.

4. Zondi, P., & Robinson, Z. (2021). The relationship between government debt and economic growth in South Africa with specific reference to Eskom. *EuroEconomica*, 40(2).

5. Karimov I.A. O‘zbekiston : milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O‘zbekiston, 1993.3-b.

6. Mullajonov F. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. –T.: O‘zbekiston, 2001. 69- b.

7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. - T.:O‘zbekiston 2009. 10-b.

